

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh. T. Axmadjonova	
Interpretation of the study of speech styles in uzbek linguistics.....	983
Sh. T. Axmadjonova	
A study on the characteristics and types of public speaking in english.....	986
Sh. Sh. Dadabayeva	
Expression of comparative relation in language.....	990
N. X. Alieva	
Evolution of new phraseological units in the era of digitization.....	997
I. M. Jo'rayev	
Jadid adabiyotida oila va jamiyat taqdiri masalasi.....	1001
O. Q. Xasanova	
Til o'rganuvchilarning xatolarini to'g'rilashda o'yinlardan foydalanishning didaktik ahamiyati.....	1005
И. Ф. Порубай	
Рассмотрение языка сферы автоспорта как профессионального языка.....	1010
D. Sh. Rasulova, N. R. Gafurova	
Gender study of forms of references in english languages.....	1019
N. R. Gafurova, O' I. Xomidova	
Linguistic and cultural analysis of lexemes expressing tradition in english and uzbek languages.....	1023
I. M. Qo'chqarov	
Methods of teaching english.....	1028
N. Z. Axmadjonov	
Nemis tili biznes nutqiy aktida kechirim so'rashning semiotik xususiyatlari (Elektron xatlar misolida).....	1031
Z. M. Xalilova	
Tilshunoslikda "Oila/Family" konseptining o'rganilishi.....	1036
G. R. Tashmatova	
Роль интеграции предметного содержания и иностранного языка в формировании иноязычной коммуникативной компетенции студентов высших учебных заведений.....	1040
Sh. A. Nuraliyeva	
Navoiyshunoslik taraqqiyotida Oybek ijodining o'rni.....	1044
Z. M. Abdullayev	
Antroponimlarning egalik shakllari bilan qo'llanilishining etnolingvistik xususiyatlari (O'zbek va Nemis tillari antroponimlari misolida).....	1047
N. Z. Axmadjonov	
Nutq aktlari va ularning klassifikatsiyasi.....	1050
D. X. Madazizova	
Badiiy va turistik-reklama diskursida kontaminatsiya imkoniyatlari.....	1055
R. U. Axrorova	
«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini.....	1059
R. U. Axrorova, L. B. Ikromova	
Adabiy asarlarda maqollarning o'rni.....	1064
A. Mamatova	
Nemis tilida frazemalarning turli ma'noda qo'llanilishi.....	1069
A. Mamatova	
Nemis tilida frazemalarning milliy-madaniy xususiyatlarining nutqiy tasnifi.....	1074
Sh. O. Abdiloyev	
Nemis va tojik tillarida frazeologik birliklarni tasniflash masalasi haqida.....	1078
N. Q. Adamboeva	
Xushmuomalalik kategoriyasini aksiolingvistik jihatdan tasniflash nazariyasi.....	1083
T. Z. Mingboyeva	
The effects of societal expectations on character development in Jack London's novels.....	1087
D. R. Ubaydullayeva, F. S. Abduvaliyeva	
Omma oldida nutq qilishdagi qo'rquv sabablari va yechimlari.....	1091
R. A. Ortiqov	
Роль и значение компьютерных игр в образовании.....	1095

**TIL O'RGANUVCHILARNING XATOLARINI TO'G'RILASHDA O'YINLARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK AHAMIYATI****ДИДАКТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИГР ДЛЯ ИСПРАВЛЕНИЯ ОШИБОК ИЗУЧАЮЩИХ ЯЗЫК****THE DIDACTICAL IMPORTANCE OF USING GAMES IN ERROR CORRECTION OF LANGUAGE LEARNERS****Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi**

Farg'ona davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

So'nggi yillarda til o'rganish xatolardan holi bo'lmashligi, xatolar til o'rganish jarayonidagi ijobiy ilgariylashni ko'rsatuvchi omil sifatida tushunilishi lozimligi haqida qarashlar keng muhokama qilinmoqda. Darhaqiqat xatolar til o'rganuvchining nimanidir o'rganishga harakat qilayotganini ko'rsatadi. Ushbu maqolada til o'rganuvchilar tomonidan ko'p yo'l qo'yiladigan, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan leksik, grammatik xatolarni to'g'rilashda kommunikativ o'yinlardan foydalanish mavzusi yoritilgan.

Аннотация

В последние годы широко обсуждается мнение о том, что изучение языка не лишено ошибок и что ошибки следует понимать как фактор, указывающий на положительный прогресс в процессе изучения языка. Действительно, ошибки показывают, что изучающий язык пытается чему-то научиться. В данной статье рассматривается тема использования коммуникативных игр для исправления лексических и грамматических ошибок, которые часто допускают изучающие язык.

Abstract

In recent years, the view that language learning is not free of mistakes and that mistakes should be understood as a factor indicating positive progress in the language learning process has been widely discussed. Indeed, mistakes show that the language learner is trying to learn something. This article deals with the use of communicative games to correct lexical and grammatical errors that are often made by language learners.

Kalit so'zlar: xato, til o'rganuvchi, xatolarni to'g'rilash, o'yin, nemis tili, leksik xatolar, grammatik xatolar.

Ключевые слова: ошибка, изучающий язык, коррекция ошибок, игра, немецкий язык, лексические ошибки, грамматические ошибки.

Key words: errors, language learners, error correction, game, German language, lexical errors, grammatical errors.

KIRISH

Ko'p olimlar, o'qituvchilar va til o'rganuvchilarning fikrlariga qaraganda, o'yinlar til o'rganish jarayonining qiziqarli, jonli va samarali kechishiga imkon yaratib beradi [1; 2; 7]. Lekin ayni paytda ko'pchilik o'qituvchilar va til o'rganuvchilar o'yinlar davomida xatolarni to'g'rilash odatiy o'rganish jarayonidan ancha qiyin va samarasiz degan qarshi fikrni ham ilgari suradilar. Bizning fikrimizga ko'ra esa, o'yinlardan xatolarni to'g'rilashda aynan maqsadli tarzda foydalanish ijobiy samaraga erishishga yordam berishi mumkin. Xatolarni maqsadli to'g'rilash – bu til o'rganuvchilar tomonidan faqat ma'lum bir grammatik yoki leksik mavzuni o'rganishda yo'l qo'yilayotgan xatolarni to'g'rilashda o'yinlardan foydalanish jarayoni. O'qituvchilar va til o'rganuvchilar tomonidan o'yinlar davomida xatolarni to'g'rilash qiyin deb topilishini inobatga olgan holda, nemis tilini o'rganish jarayonida o'ynaladigan odatiy o'yinlardagi xatolarni to'g'rilamasdan, umumiy til o'rganish jarayonida ko'p yo'l qo'yiladigan xatolarni qayd etib berish va shu xatolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan o'yinlarni shakllantirishni maqsadga muvofiq deb topdik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xorijiy tillar fan dasturlarida "muloqotga urg'u berib, ko'rsatma berish, ya'ni muloqot qilishga katta to'siq bo'lmasa, o'qituvchi o'quvchining xatosini tuzatishdan imkon qadar chetlanib, o'quvchiga xatoni o'zi tuzatishini topshirishi ..." belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda o'yinlar yordamida til o'rganuvchilarni xatolarni ilg'ashga va imkon qadar xatolarni o'zlari to'g'rilashlariga undashga harakat qilish lozim. S.Daum va H.Hantschellarning fikriga ko'ra ham, o'qituvchilar til o'rganuvchilarga faqat to'g'ri javobni bemasdan, ularning o'zlarini xatolarini to'g'rilashiga undashi maqsadga muvofiq [1, 12]. Shundagina xatolarni to'g'rilash jarayonida barqaror ijobiy siljishga erishish mumkin. Ular quyidagi o'yinlarni xatolarni to'g'rilash o'yinlari sifatida taqdim etishgan.

Klebezettel-Korrektur

Bu o'yin 20-30 daqiqa o'ynash uchun mo'ljallangan bo'lib, o'yin nechta guruhda o'tkazilishiga qarab materiallari tayyorlanadi. O'yin til o'rganuvchilar sonidan kelib chiqib, 2 yoki 3 ta guruhda o'tkazilishi mumkin. Har bir guruhga 10 tadan leksik yoki grammatik xatosi bor gaplar va ularni qayta yozish uchun kartochkalar beriladi. Bitta posterga guruhlariga berilgan gaplar yozib qo'yiladi. Har bir guruh to'g'ri gaplarni yozadigan kartochkalari rangi boshqasidan farq qilishi kerak. Har bir guruh to'g'rilangan gaplarni qayd uchun berilgan kartochkalarga o'qishga qulay, yirik harflar bilan yozishadi va noto'g'ri yozilgan gaplarni ustiga kleylaydi. Hamma guruh gaplarni to'g'rilab posterga yopishtirib bo'lganidan keyin plenumda gaplar tekshiriladi. Agar gapdagi xato to'g'ri to'g'rilangan bo'lsa, joyida qoladi, agar yana xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa, posterdan olib tashlanadi. Yakunda qaysi rang posterda ko'proq qolishi g'olib guruhni belgilab beradi. O'yindagi gaplar soni va xatolarning darajasi til o'rganuvchilarning bilim darajasiga mos tushishiga alohida e'tibor berish lozim.

O'yinni o'tkazish orqali quyidagi didaktik maqsadlarga erishish mumkin:

- Til o'rganuvchilar o'zlari yo'l qo'yadigan xatolarni o'zlari to'g'rilashga odatlanishadi;
- Talabalar kelgusi faoliyati uchun zarur bo'lgan xatolarni ang'lay olish ko'nikmasiga ega bo'lishadi;
- Xatolarni to'g'rilash jarayoni odatdagidek zerikarli va tanbex ohangida emas, balki musobaqa tarzida, ko'tarinki ruhda o'tkazilishiga erishiladi.

S.Daum va H.Hantschellar "Korrekturwimmel" o'yinini ham til o'rganuvchilarning xatolarini to'g'rilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashadi. O'yin uchun xato gaplar yozilgan quyidagicha kartochkalar kerak bo'ladi.

<u>Viele Dank fuer ihr Schreiben von letzter</u> <u>Woche</u>	<u>Vielen</u>
<u>Heute ich habe einen interessanten Film</u> <u>gesehen.</u>	<u>Heute habe ich</u>

Rasm № 1. "Korrekturwimmel" o'yini uchun kartochka namunasi

Kartochkalarning yarmida xato yozilgan gaplar, ikkinchi yarmida esa gapdagi xato qismning to'g'rilangan varianti yoziladi. Har bir gapda ma'lum bir xato (so'z tartibi, artikl, sifat qo'shimchasi, fe'ning tuslanishi va boshqalarga oid) bo'ladi. O'yin quyidagi tartibda o'tkaziladi. Guruhdagi har bir til o'rganuvchiga bittadan kartochka tarqatiladi. Shundan so'ng ular gaplaridagi xatolarni to'g'rilash

TILSHUNOSLIK

uchun qaysi sheriklaridagi kartochka mos tushushini topish uchun xonada aylanib, bir-birlarining kartochkalarini o'qib chiqadilar. Gapdagi xatoni to'g'ri variantini topgan juftliklar gapning to'g'ri variantini doskaga yoki posterga yozib qo'yishadi. O'yin hamma gaplar to'g'rilanib bo'lgunigacha davom etadi. Ba'zan til o'rganuvchilar bu o'yinni juda tez bajarib ham qo'yishlari mumkin. Shuning uchun ikki marta o'ynash uchun yetarli kartochkalarni tayyorlab qo'yish maqsadga muvofiq.

Bu o'yinni guruhni ikki yoki uchta kichik guruhga ajratgan holda ham o'tkazish mumkin, lekin bunda kartochkalarning shakli biroz o'zgartiriladi.

<u>Viele Dank fuer ihr Schreiben von letzter</u> <u>Woche</u>	
<u>Heute ich habe einen interessanten Film</u> <u>gesehen.</u>	

Rasm № 2. "Korrekturwimmel" o'yinining muqobil variantini o'tkazish uchun kartochka namunasi


Kartochkalarning yarmiga xato gaplar yoziladi, ikkinchi tomoni esa bo'sh qoldiriladi. Har bir guruhga 10 yoki 15 tadan shunday kartochkalar berish maqsadga muvofiq. Til o'rganuvchilar kichik guruhlarda, o'zaro maslahatlashgan holda xatolarni topishadi va to'g'rilashadi. Har bir guruhning javoblari tayyor bo'lganidan keyin kartochkalar guruhlar o'rtasida almashiladi va xatoni bartaraf etish to'g'ri amalga oshirilganmi yoki yo'qmi tekshiriladi. Bundan ko'zlangan maqsad til o'rganuvchilarda xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish hisoblanadi.

Quyidagi o'yin namunasi ham dars jarayonida xatolarni qiziqarli va samarali to'g'rilashga xizmat qiladi. O'yinning nomi "Futbol o'yini sifatida xatolarni to'g'rilash". Bu o'yin ham musobaqa shaklida o'tkazish uchun juda mos tushadi, o'yin musobaqa tarzida ham tezkor va ham qiziqarli bo'ladi.

Ko'p o'qituvchilar guruhlarining kattaligi tufayli o'quvchilarni o'ynatish imkoniyati yo'q ekanligini aytadilar. Bu o'yin tamoyilida esa guruhning kattaligi hech qanday ahamiyatga ega emas.

Bilamizki, har qanday darslikda grammatik bo'lim yoki bob uchun ma'lum mashqlar taqdim etiladi. Bunday mashqlar esa odatda, avvalgi eski darsliklardan ko'chirib olingan, o'sha – o'sha eski grammatik qoidaning bayoniga asoslangan bo'ladi. Ammo ko'p hollarda bunday mashqlar til o'rganuvchilarning so'z boyligiga va guruhning ayni paytdagi holatiga to'g'ri kelmayligi ham mumkin. Shuning uchun chet til o'qituvchisi o'yinlardan foydalanishda mashqlarni guruhning xususiyatidan kelib chiqib tanlashga va rivojlantirishga harakat qilishi kerak.

Quyida futbol o'yini sifatida xatolarni qanday to'g'rilash mumkinligini H.Funk va M.Koeniglarining fikrlariga asoslangan holda ko'rsatib o'tmoqchimiz. Aytaylik, til o'rganuvchilar bilan Aktiv/Passiv grammatik mavzusini o'rganildi, lekin ular gaplarni aktiv nisbatdan majhul nisbatga, majhul nisbatdan aktiv nisbatga aylantirishda ko'p xatoga yo'l qo'yishda davom etishyapti. Aynan shu jarayonda bu o'yin juda ham yaxshi samara beradi. H.Funk va M.Koenig o'yinni tasvirlash uchun quyidagicha rasmdan foydalanishgan [3]:



Rasm № 3. Futbol o'yini sifatida xatolarni to'g'rilash

O'yin quyidagi tartibda o'tkaziladi:

1. Guruhlar 10 tadan aniq nisbatdagi (yoki majhul nisbatdagi) gaplarni yozadilar, bu gaplar ularning o'zlari tomonidan to'g'ri shaklga keltirsa bo'ladigan qiyinlik darajasida bo'lishi maqsadga muvofiq.

2. A guruhning bir ishtirokchisi bir gapni o'qib eshittiradi va B guruhga yoki gurudagi ma'lum biriga murojaat qiladi. Masalan:

Mein Vater brachte meine Mutter zum Bahnhof.

3. B guruh A guruhni gapini eshitgandan so'ng quyidagi harakatni amalga oshirishi mumkin:

a) guruh bo'lib, A guruh tomonidan aytilgan gapni qaysi nisbatdaligiga qarab, aktiv nisbatdan majhul nisbatga, majhul nisbatdan aktiv nisbatga aylantirishlari kerak;

b) Yoki guruhning ma'lum bir ishtirokchisi aytilgan gapni aktiv nisbatdan majhul nisbatga, majhul nisbatdan aktiv nisbatga aylantirishi kerak. Masalan:

Meine Mutter wurde von meinem Vater zum Bahnhof gebracht.

Agar javob to'g'ri bo'lsa, to'pni raqib darvozasiga irg'itadi va bitta gol urilgan hisoblanadi. Agar savol bergan guruhning o'zi to'g'ri javobni bilmasa, unda avtogol hisoblanadi va ochko raqib guruh hisobiga yoziladi. Yakuniy hisob nechki bo'lishiga qarab g'olib guruh aniqlanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan o'yinlardan turli xil variantlarda, turli mavzulardagi xatolarni to'g'rilash uchun foydalanish mumkin.

Xatolarni to'g'rilashda o'yinlardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari quyidagilar:

- Har safar guruhning eng kuchsiz ishtirokchisini savolga javob berishga tortishning iloji bo'lmaydi, savolga javob berish uchun har safar yangi ishtirokchini tanlash kerak bo'ladi.

- Qo'shni ishtirokchi (o'ng/ chap tarafdagi) javob berayotgan ishtirokchiga yordam berishi mumkin.

- Ikkala tomondagi qo'shni ham baravar yordam berishi mumkin.

- Muhimi o'yin jo'shqinligini yo'qotmaydi, uning jo'shqinligi o'yinning boshidan oxirigacha yuqori darajada bo'ladi.

Bu vaziyatda o'quvchilar iloji boricha raqib jamoa uchun murakkab gaplarni tuzishga harakat qilishadi. Ammo ular bu gaplarni o'zlari ham yecha olishlariga kuchlari yetishlarini hisobga

TILSHUNOSLIK

olishlari kerak bo'ladi. Bir-birlarini xatolarni to'g'rilash, sheriklariga xatoni to'g'rilashda yordam berish yordamida xatolarni bartaraf etish ko'nikmasi rivojlanib boradi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, xatolarni to'g'rilash darsning uzviy qismi bo'lishi lozim, lekin uni til o'rganuvchilarga faqat tanbeh berish uchun yoki darsdagi tartibni saqlab turish uchun o'tkazish kerak emas [4; 5; 6; 8.]. Xatolarni to'g'rilash til o'rganuvchilarga motivatsiya berish sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Xatolarni to'g'rilashda turli o'yinlardan foydalanish, bu jarayonni musobaqa tarzida tashkil etish til o'rganuvchilarning nemis tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam boradi. Xatolarni bartaraf etish kompetensiyasi bo'lajak nemis tili o'qituvchilari uchun juda ham muhim bo'lib, uni turli o'yinlar yordamida rivojlantirishga ahamiyat berish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Daum S., Hantschel H. J. 44 kommunikative Spiele. – Ernst Klett Sprachen, 2014. B.135
2. Ferris D. The 'grammar correction' debate in L2 writing: Where are we, and where do we go from here? (and what do we do in the meantime ... ?) *Journal of Second Language Writing* 13: 1, 2004, P. 49-62.
3. Funk H. et al. Grammatik lehren und lernen. – Langenscheidt, 1991.
4. H.Raabe. Der Fehler beim Fremdsprachenerwerb und Fremdsprachengebrauch In: Dieter Cherubim (Hg.): Fehlerlinguistik. Beiträge zum Problem der sprachlichen Abweichung. Tübingen, 1980. S.65.
5. M.Schoormann, T.Schlak. Hilfreich oder ohne praktischen Nutzen?–Die Forschung zur mündlichen Fehlerkorrektur im Zweit-und Fremdsprachenunterricht //Zeitschrift für Fremdsprachenforschung. – 2011. – T. 22. – №. 1. – C. 43-84.;
6. M.Schoormann, T.Schlak. Zur Komplexität mündlicher Fehlerkorrekturen //Beiträge zur Fremdsprachenvermittlung. – 2011. – T. 51. – C. 77-105.
7. Schweckendieck J. Fehler und Fehlerkorrektur im DaZ-Unterricht. In: Kaufmann, Susan et al. (Hrsg.), *Fortbildung für Kursleitende Deutsch als Zweitsprache: Band 3: Unterrichtsplanung und - durchführung*. Ismaning: Hueber. 2008
8. W.Tönshoff. Mündliche Fehlerkorrektur im Fremdsprachenunterricht. In: Zeitschrift für Fremdsprachenforschung. Band 16., München. 2005. S.14.